International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

*International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.*

# GAP STRUKTURALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SO‘ROQ OLMOSHLARI VOSITASIDA HOSIL BO‘LISHI

***Tursunov Ahmad Amirovich***

*Roman-german tillari fakulteti*
*Ikkinchi chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi*
*Samarqand davlat chet tillar instituti*

## *Annotatsiya:*

Maqolada gap strukturali frazeologik birliklarning so‘roq vositasi yordamida hosil bo‘lishi, shuningdek, ushbu jarayon mantlarda qay holatda aks etishi misollar yordamida muhokama qilindi.

## *Kalit so‘zlar:*

*frazeologik birliklar, so‘roq olmoshlari, predlog, ot komponenti, kommunikativ xususiyat.*

Gap strukturali frazeologik birliklarning yana bir turi bu ularning tarkibida so‘roq olmoshlarining ishtirok etishi va asosiy grammatik vazifani o‘z zimmasiga olishi bilan belgilanadi. Bunda asosan *was, wer, wie, wo, wohin, warum* kabi so‘roq olmoshlarining faolligini kuzatishimiz mumkin. Albatta, ushbu so‘roq olmoshlardan tashqari, ba’zi bir so‘roq olmoshlarining predlog bilan birikib hosil bo‘luvchi gap strukturali frazeologik birliklarni ham ajratish mumkin. Masalan: *wofür, womit, wozu, worauf, worüber* kabi olmoshlarning predlog bilan birikuvidan hosil bo‘ladigan so‘z birikmalarini ham qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin. Bular haqida batafsil to‘xtaladigan bo‘lsak, *was* so‘roq olmoshi *für* predlogi bilan birikib, his-hayajonli gap strukturali frazeologik birlikning hosil bo‘lishini kuzatamiz. Masalan: **Was für ein Ding!** ‘Uh, qanday narsa!’, **Was für einen Job!** ‘Uh, qanday ish!’, **Was für eine Angst!** ‘Qanday dahshat-a!’, **Was für eine Idee!** ‘Uh, qanday g‘oya!’

Yuqorida keltirilgan gap strukturali frazeologik birliklarni ijobiy yoki salbiy ma’no berishini ot komponenti oldidan kelgan aniqlovchi belgilab beradi. Masalan: **Was für ein hübsches Ding!** ‘Uh, qanday zo‘r narsa!’ yoki **Was für ein schlechtes Ding!** ‘Oh, Qanday yomon narsa!’

Bunday gap strukturali frazeologik birliklar ko‘pincha his-hayajondan tashqari, hayron qolish, lol qolish ma’nolarini beradi. Ushbu holatlarda frazeologik birliklar tarkibidagi ot komponent hech

qanday aniqlovchi olmaydi. Masalan: **Was für ein Buch!** ‘Bu qanaqa kitob ekan!’, **Was für ein Lärm!** ‘Bu qanaqa shovqin bo‘ldi!’, **Was für ein Kind!** ‘Bu qanaqa bola bo‘ldi!’ v.h.k.

Bunday gap strukturali frazeologik birliklarning mahsuldorligi frazeologiyalashgan sintaktik birliklarning funksional va pragmatik jihatlarida belgilangan bo‘lib, ularning so‘zlashuv nutqida muntazam ravishda qo‘llanilishi ushbu frazeologik birliklarning kommunikativ xususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi.

Demak, ularning so‘zlashuv nutqida yuqori darajali qo‘llanilishi va muntazamligi, shu jumladan, sintagmatik xususiyatlari katta ahamiyatga ega.

Mazkur turdagi gap strukturali frazeologik birliklarning majburiy o‘zgaruvchan komponenti sodda gapni tashkil qiluvchi otning fe’l bilan birikmasi orqali kengaytirilishi mumkin. U holda kesim to‘liq morfologik paradigmaga ega bo‘ladi va u zamonning barcha grammatik shakillarida qo‘llanilishi mumkin. Frazeologiyalashgan gaplarning strukturaviy varianti ham ushbu gap tuzilishining asosiy variantidagidek shu xildagi so‘z turkumlari, baho obyekti hisoblangan predmet belgisi bilan taqdim etilganda majburiy o‘zgaruvchan komponentni hosil qiluvchi sifat ega va kesim hisobiga kengaytirilishi mumkin. Masalan: **Was wurde das für ein lustiger Abend!** ‘Bu qanday zo‘r, qiziqarli oqshom bo‘ldiya!’

Bunday frazeologik birliklar tarkibida mazmunni, hayratni kuchaytiruvchi leksik birliklar ham qo‘llaniladi. Kuchaytiruvchi so‘zlar gapning ohangi va yorqinligiga ta’sir qiladi, chunki ular so‘zlovchining ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularini, uning nutq predmetiga munosabatini aniqroq, to‘laroq ifodalashga yordam beradi. Kuchaytiruvchi so‘zlar sirasiga *denn, doch* kabi so‘zlarni kiritish mumkin. Bunday gap strukturali frazeologiyalashgan gaplar so‘roq mazmunli gap shaklida bo‘lishiga qaramasdan, darak yoki undov gap vazifalarini bajarib keladi. Bu turdagi gaplarning stilistik jihati ham idiomalashgan hisoblanadi, chunki ular so‘zlashuv nutqida muntazam ravishda qo‘llaniladi. Mazkur fraseoqoliplar ekspressiv frazeologiyalashgan sintaktik qurilmalarning o‘ziga xos turi hisoblanadi va bu qoliplarning hissiy bo‘yoqdorlik darajasi o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Hozirgi zamon nemis tilida yuqorida aytiib o‘tilgan frazeoqolip so‘roq ma’noli bo‘lib, sodda gap shaklida mujassamlashganligi sababli mahsuldor hisoblanadi. Bunday frazeoqoliplar fakultativ muchaga hamda unga xos bo‘lgan tuzilish variantiga ega bo‘ladi va unga frazeologiyalashuvning barcha xususiyatlari xos bo‘lishi sababli uni nemis tilining frazeologik qatlamiga kiritish mumkin.

So‘zlashuv nutqida ushbu frazeoqolipga quyidagi ma’no turlari yuklatilishi mumkin:

- nutq subyekti va predmetini salbiy baholash, ayblash, undan achchiqlanish, unga tanbeh berish bilan birgalikdagi hayrat. Masalan: **Was für ein roher Bauer!** ‘Buncha qo‘pol dehqon bo‘lmasa!’;
- isbot-dalilning inkor etilishi hamda uni mensimaslik, undan norozilik, achchiqlanish bilan narsa-predmetni baholash. **Was für eine Dame ist das!** ‘Shu ham ayol (xonim) bo‘ldimi!’;

nutq predmetini ayblash orqali undan achchiqlanish bilan birga ushbu harakatlarni tugatishga undash. **Was für ein Streit ist das!** ‘Shunaqa ham bahs bo‘ladimi!’

**Adabiyotlar**


1. Данилевская Н.В. Лингвостилистический анализ художественного текста // Стилистический энциклопедический словарь русского языка. – М.: Флинта; Наука, 2003. - С.195-204.
2. Демьянков В.З. Когнитивизм, когниция, язык и лингвистическая теория // Язык и структура представления знаний. – М.: ИНИОН, 1992. - С.39-77.

3. Добрович А.Б. Ролевая модель межличностного общения: Принципиальные вопросы теории знаний // Сборник научных трудов/ Тартуский ун-т, 2004. – С. 60-88.
4. Звегинцев В.А. Теоретическая и прикладная лингвистика. – М.: Просвещение, 1967. – 320 с.
5. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л.: Наука, 1972. - 216 с.
6. Кирсанова Н.А. К вопросу о нормативном и ненормативном употреблении фразеологизмов // Вопросы стилистики. – Вып. 14. – Саратов, 1978. – С. 39-49.
7. Amirovich, T. A. (2023). SYNTACTIC PHRASEOLOGY. CONCEPT OF PHRASE-SYNTACTIC SCHEME. *Miasto Przyszłości*, *42*, 621-627.
8. Турсунов, А. (2022). Germanistikada gapning ikkinchi darajali bo ‘laklarini ifodalash usullari. *Современные лингвистические исследования: зарубежный опыт, перспективные исследования и инновационные методы преподавания языков*, (1), 37-39.